



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 5**

**2026**

## **HAQIQAT VA BILIM MUNOSABATINING EPISTEMOLOGIK TAHLILI**

**Panjiyev Suhrob**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, dotsent (PhD)

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada falsafada haqiqat tushunchasi, uning bilim bilan o'zaro dialektik aloqadorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, haqiqat tushunchasi borasida Sharq va G'arb mutafakkirlarining asarlarida ilgari surilgan g'oyalarning bugungi kundagi ahamiyati misollar asosida yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** falsafa, haqiqat, obyekt va subyekt munosabatlari, bilim va uning turlari, Sharq va G'arb falsafasi.

## **ЭПИСТЕМОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВЗАИМОСВЯЗИ МЕЖДУ ИСТИНОЙ И ЗНАНИЕМ**

**Панджиев Сухроб**

Термезский университет экономики и сервиса, доцент (PhD)

### **Аннотация**

В данной статье анализируется понятие истины в философии, его диалектическая связь со знанием. Также на примерах подчеркивается актуальность идей, выдвинутых в работах восточных и западных мыслителей относительно понятия истины, для современности.

**Ключевые слова:** философия, истина, отношения объект-субъект, знание и его типы, восточная и западная философия.

## **EPISTEMOLOGICAL ANALYSIS OF THE RELATIONSHIP BETWEEN TRUTH AND KNOWLEDGE**

**Panjiyev Suhrob**

Termez University of Economics and Service, Associate Professor (PhD)

### **Abstract**

This article analyzes the concept of truth in philosophy, its dialectical relationship with knowledge. Also, the relevance of the ideas put forward in the works of Eastern and Western thinkers regarding the concept of truth for today is highlighted on the basis of examples.

**Keywords:** philosophy, truth, object-subject relations, knowledge and its types, Eastern and Western philosophy.

Bilimning nazariy shakli bo'lgan haqiqatga olimlar turlicha ta'rif beradilar. Haqiqat — obyektga mos keluvchi, isbotlangan bilimdir. Haqiqat tushunchasining kelib chiqishi qadimgi Yunoniston falsafasiga borib taqaladi. Mashhur yunon faylasufi Arastu haqiqatga quyidagicha ta'rif bergan: "Haqiqat — ong, tafakkur va substansiya, bilim va voqelikning o'zaro mos kelishidir". Ya'ni bilim nuqtayi nazaridan obyekt haqiqat deb tan olinishi uchun uning voqelikka mosligi isbotlanishi kerak. Asosan, falsafaning asosiy maqsadlaridan biri haqiqatni o'rganish, uni tan olish va haqiqatga ishonch hosil qilishdir. "Ilmning ideali — mavjud sirning mohiyatini ochib berish, har bir narsaning haqiqatini aniqlash va shu asosda undan tabiiy ravishda nima paydo bo'lishini yoki nima zarurligini belgilashdir" [3].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Falsafa fani o'zining rivojlanish tarixida haqiqat tushunchasi doirasida turli qarashlarni shakllantirgan. Ulardan birinchisi klassik tushuncha bilan bog'liq. Ushbu konsepsiyaga ko'ra, haqiqat aniq vaziyatda inson bilimining obyektiv voqelikka mos kelishi sifatida tushuniladi. Aflotun va Arastu haqiqat tushunchasining klassik asoslarini yaratgan, haqiqat haqida aniq va ishonchli ma'lumotlar bergan qadimgi yunon mutafakkirlaridir. Olimlar klassik davrda haqiqatni inson bilimining real holat va obyektiv voqelik bilan mosligi orqali izohlaganlar. Haqiqatning klassik konsepsiyasiga ko'ra, obyekt haqidagi bilimlarning mazmuni obyektning o'ziga mos keladi. Arastu metafizikaga oid asarida haqiqatni atrof-muhitimizdagi obyektiv narsa va hodisalarning inson ongida aks etishi sifatida ta'riflagan [4].

Dialektik materializm hozirgi zamon falsafiy va ilmiy haqiqat tushunchasining muhim asoslaridan biridir. Dialektik materializm obyektiv haqiqatni bilish jarayonini tushunish uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan bilish nazariyasini yaratdi. Ushbu yondashuvga ko'ra, haqiqat, birinchidan, obyektiv voqelik sifatida tan olinadi va bizning ongimizga bog'liq bo'lmagan hodisalardan iborat bo'ladi.

Ikkinchidan, haqiqat subyektiv anglash jarayoni bilan ham bog‘liq. Uchinchidan, bilimning natijasi haqiqat deb hisoblanadi. Bundan ko‘rinadiki, haqiqat doimo obyekt va subyekt munosabati orqali namoyon bo‘ladi. To‘rtinchidan, haqiqat uzluksiz davom etadigan cheksiz jarayondir. Haqiqat subyekt va obyekt o‘rtasidagi munosabatlarga asoslangan ijtimoiy-tarixiy jarayon bo‘lib, u doimo rivojlanib, o‘zgarib va to‘ldirilib boradi. Bu uzluksiz jarayon esa nisbiy va mutlaq haqiqat orqali ifodalanadi [5].

Haqiqat bitta va u obyektivdir. Haqiqat o‘z mazmuniga ko‘ra obyektiv, shakliga ko‘ra esa subyektivdir. Obyektiv haqiqat deganda subyektdan, ya‘ni insoniyatdan mustaqil bo‘lgan mazmun tushuniladi. Insoniyatga dastlab tushunarsiz bo‘lgan haqiqat birdaniga anglanmaydi, balki asta-sekin tan olinadi, farazlar ishlab chiqiladi va izohlanadi. Bu jarayonda subyektning ahamiyati katta, chunki u haqiqatni anglaydigan va ifodalaydigan asosiy kuchdir. Shuning uchun insonlar haqiqatga erishishning samarali usullarini izlaydilar, bu esa ularning tafakkur faolligini oshiradi. Shunday ekan, haqiqatni bilish falsafaning asosiy vazifalaridan biri, deb aytish mumkin.

**Tahlil va natijalar.** Falsafada alohida haqiqatlarni bir butun sifatida tan olish mutlaq haqiqat, ana shu mutlaq haqiqatga taxminiy jihatdan yaqin bo‘lgan haqiqat esa nisbiy haqiqat deyiladi. Ya‘ni nisbiy va mutlaq haqiqat alohida va bir-biridan uzoq tushunchalar emas, aksincha, ular bir-birini to‘ldiruvchi yagona tushunchalardir. Mutlaq va nisbiy haqiqat kognitiv rivojlanish jarayonini aks ettiruvchi kategoriyalardir. Bu tushunchalar o‘tmishda tan olingan va kelajakda tan olinadigan hodisalar, shuningdek, kelajakda bilimlarimizda o‘zgarishi mumkin bo‘lgan haqiqatlar o‘rtasidagi munosabatni belgilaydi. Bilimning uzluksiz jarayon ekanligiga quyidagi misolni keltirish mumkin: insoniyat tomonidan yaratilayotgan turli texnik va sanoat yangiliklari uzluksiz global rivojlanish jarayonlarining natijasidir. Vaqt o‘tishi bilan insoniyatning borliqni anglash jarayoni, shubhasiz, to‘xtovsiz davom etadi. Ya‘ni haqiqat taraqqiyot tufayli o‘zgarib, to‘ldirilib boradigan nisbiy kategoriyadir [6].

Nisbiy haqiqat — haqiqatga yaqin bo‘lgan va unga sezilarli darajada mos keladigan, ammo to‘liq bo‘lmagan bilimdir. Yuqorida aytib o‘tilganidek, nisbiy haqiqat mutlaq haqiqatni anglashning tarkibiy qismidir. Ular butun va qism munosabatida namoyon bo‘ladi. Bir so‘z bilan aytganda, mutlaq haqiqat nisbiy haqiqatlarning umumlashgan natijasidir. Nisbiy haqiqatning mazmuni cheklangan bo‘lsa-da, uning rivojlanish imkoniyatlari chegarasizdir. Chunki u mutlaq mohiyatning ayrim qismlarini o‘zida jamlaydi, o‘zgaruvchan dunyo tafsilotlarini saralaydi, tanlaydi va hayotga moslashtiradi.

Qadimgi yunon falsafasida mutlaq haqiqat tushunchasi ma‘lum bir borliqning turg‘un, o‘zgarmas, tabiiy va o‘z-o‘zidan shakllangan mohiyati sifatida tushunilgan. Diniy qarashlarga ko‘ra esa mutlaq haqiqat muayyan kuch va ruhga ega bo‘lgan tushuncha sifatida talqin qilingan. Mutlaq haqiqat obyekt haqidagi aniq va to‘liq bilimdir. Qat‘iy aytganda, mutlaq haqiqat voqelikka mos keluvchi obyektiv borliq haqidagi o‘zgarmas bilimdir [7]. Hozirgi zamon falsafasida haqiqat tushunchasi haqida turli qarashlar mavjud. Ular orasida uchta asosiy konsepsiya ajralib turadi: kogerentlik konsepsiyasi, pragmatizm konsepsiyasi va konvensionalizm konsepsiyasi.

Kogerentlik yoki muvofiqlik konsepsiyasining asosiy mazmuni quyidagicha: “Haqiqat — bilimning voqelikka mos kelishidir”. Kogerentlik tushunchasi lotincha *cohaerentia* — bog‘lanish, davom etish ma‘nolarini anglatadi. Ya‘ni obyektiv borliq haqiqat deb tan olinishi uchun u voqelikka mos kelishi kerak. Pragmatik konsepsiyaning asosiy mazmuni quyidagicha: “Haqiqat tajriba bilan isbotlanadi”. Pragmatik tushuncha yunoncha *pragma* — harakat, tajriba so‘zidan kelib chiqqan. “Bilimning manbai va asosiy vositasi tajriba, mantiqiy fikrlash va ilmiy dalildir. Ammo insonni haqiqatga olib keladigan ilmiy vositalarning eng muhimi tajribadir. Chunki tajriba amaliy ahamiyatga ega, qolgan bilimlar esa shu tajriba orqali isbotlanishi kerak” [3]. Konvensionalizm konsepsiyasiga ko‘ra, “haqiqat — bilimning o‘zi bilan kelishuvidir”. Konvensionalizm tushunchasi lotincha *conventio* — kelishuv, shartnoma, shart degan ma‘nolarni anglatadi. Ushbu konsepsiya tarafdori R. Karnapning fikricha, haqiqat mazmuni shartnomaviy xususiyatga ega. Asosan, ilmiy bilim qat‘iy tashkiliy shakl bo‘lib, u o‘zining izchilligi, aniqligi va mantiqiy tartiblilik bilan namoyon bo‘ladi.

Ilmiy bilimning o‘ziga xos yo‘nalishi haqiqatga erishishdir. Zero, haqiqat o‘zgarmas tizim emas, u hech qachon eskirmaydigan abadiy mavzudir. Haqiqat konsepsiyasining mazmun-mohiyati vaqt o‘tishi bilan anglash, rivojlanish va kashf qilish jarayonida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun har bir inson dunyoda o‘z o‘rnini aniqlash uchun haqiqatni izlashi va bilimni boyitib borishi lozim. Bu fikrni buyuk faylasuf Abu Nasr Forobiyning qarashlari ham tasdiqlaydi. Uning fikricha, insonning o‘z maqsadiga erishishi avvalo uning o‘ziga bog‘liqdir. Odatda haqiqat bilim obyektiga mutanosiblik sifatida belgilanadi. Haqiqat — hissiy yoki intellektual anglash vositasida yoxud uning ishonchliligi nuqtayi nazaridan tasniflanuvchi ma‘lumot orqali olinadigan obyekt to‘g‘risidagi adekvat bilimdir. Shunday qilib, haqiqat subyektiv voqelik sifatida

ma'lumotlar va qadriyatlar doirasida mavjud bo'ladi. Bilimlarning bahosi ularning haqiqiyliги bilan aniqlanadi. Haqiqat bilish obyektining emas, balki bilimning xususiyatidir [6].

Haqiqat subyekt tomonidan obyektни bilishning adekvat in'ikosi sifatida aniqlanadi. U onga bog'liq bo'ladimi yoki yo'qmi, voqelikni qanday bo'lsa, shundayligicha namoyon qiladi. Haqiqat rivojlanish dinamikasidagi voqelikning adekvat aksidir. Biroq insoniyat ko'pincha haqiqatga yanglishishlar va ziddiyatlar orqali erishadi. Yanglishish — bu voqelikka mos kelmaydigan, biroq haqiqat sifatida qabul qilinadigan ong mazmunidir. Yanglishish ham obyektiv borliq bilan bog'liq bo'lib, aniq manbaga ega. Yanglishishlar axborot to'liq bo'lmagan vaziyatlarda, hal qilinishi kerak bo'lgan muammolarning murakkabligi va bilish yo'lini tanlashdagi nisbiy erkinlik natijasida yuzaga keladi. Biroq yanglishishni axloqiy-psixologik fenomen sifatida yolg'ondan farqlash zarur.

Yolg'on — bu kimnidir aldash maqsadida ishning asl holatini buzib ko'rsatishdir. Yolg'on, xuddi uydirma singari, mavjud bo'lmagan narsani to'qish yoki asl holatni bilib turib yashirishdir. Mantiqan noto'g'ri fikr yuritish ham yolg'onning manbai bo'lishi mumkin. Ilmiy bilish ham o'z mohiyatiga ko'ra turli fikrlar va ishonchlar bilan to'qnashuvlarsiz bo'lmaganidek, xatolarsiz ham bo'lmaydi. Ko'pincha kuzatish, o'lchash, hisoblash, muhokama qilish va baholash jarayonlarida xatoliklarga yo'l qo'yiladi. Bu jarayon, ayniqsa, ijtimoiy fanlarda, jumladan tarixda ancha murakkab hisoblanadi. Fanda manbalarning mavjudligi, ularning ishonchliligi va xolisligi muhim ahamiyatga ega.

Haqiqat tarixiydir. Tugal va o'zgarmas haqiqat tushunchasi ko'pincha xomxayoldir. Har qanday bilish obyektі cheksizdir: u o'zgaradi, turli xususiyatlarga ega bo'ladi va atrofdagi olam bilan son-sanoqsiz aloqalar orqali bog'lanadi. Bilishning har bir bosqichi jamiyat va fanning rivojlanish darajasi bilan cheklangan. Shu sababli ilmiy bilimlar nisbiy xarakter kasb etadi.

Haqiqat va yanglishish bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Ularning umumiyliги shundaki, barcha qarama-qarshi qutblar singari ular bir-birisiz mavjud bo'la olmaydi, bir-birini shartlaydi va o'zaro bir-biriga aylanishi mumkin. Agar haqiqat fikrlashning adekvat, to'g'ri aks etishi yo'lidagi harakat bo'lsa, yanglishish haqiqatga zid bo'lgan, fikrlashning buzib aks ettirilishi yo'lidagi harakatdir. Shu bilan birga, ular bir-biridan farq qiladi. Yanglishish bilish jarayonidagi mutlaqlashtirish, predmetdan uzilgan va u bilan fikran mos kelmaydigan holatdir. Yanglishish to'g'risidagi tasavvurlar ham falsafiy fikrlash manbalari sirasiga kiradi. Yanglishish muammosi antik falsafa davridayoq ko'ndalang qo'yilgan. Bu davrda yanglishish aql va irodaning universum qonunlariga mos kelmasligi sifatida o'rganilgan. O'rta asrlarda din peshvolari tomonidan yanglishish yovuz niyat bilan ilohiy haqiqatni buzish sifatida talqin qilingan. Yangi davr faylasuflari F. Bekon, R. Dekart va B. Spinoza yanglishishni ong va irodaga ta'sir etuvchi buzib ko'rsatish holati sifatida izohlaganlar. Ularning tushunchasiga ko'ra, inson irodasi erkin bo'lib, aqldan ham kengroqdir; u aqlni oziqlantiradi, unga ta'sir ko'rsatadi va buning natijasida yanglishish yuzaga keladi. Shuning uchun bilishda o'xshash g'oyalar bilan bir qatorda bir-biriga o'xshamaydigan g'oyalarning ham vujudga kelishi muqarrardir.

Ko'plab fransuz materialistlari — Lametri, Didro, Golbax, Gelvetsiy va boshqalar yanglishish manbai sifatida shaxsning sezgilarga bo'ysunishida shaxsiy manfaatni, ijtimoiy guruhda guruh manfaatini, hukmron doiralarda esa siyosiy manfaatni ko'rganlar. Ularning fikricha, yanglishishlarsiz ongli jamiyat qurish uchun yanglishishning ushbu manbalarini tafakkur yordamida ochish yetarlidir.

Gobbs, Lokk va Yum yanglishish manbaini mulohazadagi xatolarda ko'rganlar. Bu borada Gobbs odamlar o'zlarining haqiqiy bilimlari yordamida so'zlarni to'g'ri tushinishlari zarurligini ta'kidlaydi. Keyinchalik bu nuqtayi nazarni Kant rivojlantirdi. Uning tushunchasiga ko'ra, yanglishish subyektiv va obyektiv asoslarning uyg'unlashuvi natijasi bo'lib, uning oqibatida individual ong hissiy tajribadan chetga chiqadi. Fixtning ta'kidlashicha, haqiqatga qarama-qarshi aytilgan "Men" erkin tarzda, yanglishishga zid "Men" esa erkin emas, balki tashqi sharoitlar ta'sirida namoyon bo'ladi.

Gegel Kant va Fixtning subyektivizmiga qarshi bo'lganidek, haqiqat va yanglishishning metafizik ziddiyatiga ham qarshi chiqqan. Uning ta'kidlashicha, yanglishish haqiqatning tashqi emas, balki ichki ziddiyatidir. Shu sababli u haqiqat singari obyektiv qonuniylikka asoslanadi. Bilishning ziddiyatli tabiati yanglishishning manbai hisoblanadi. Yanglishish — bu "haqiqiy bo'lmagan shakldagi haqiqatdir". Muhimi, yanglishishning mavjudligini e'tirof etish emas, balki uning qanday vujudga kelishini aniqlashdir [7].

Olamni, insonni va jamiyatni bilish jarayonida eng olijanob, yuksak va ahamiyatli tuyg'ular haqiqat bilan bevosita bog'lanadi. Haqiqat borliqning inson ongidagi adekvat in'ikosidir. Haqiqat yagonadir, biroq unda obyektiv, mutlaq va nisbiy jihatlar ajralib turadi. Obyektiv haqiqatda olam va moddiy borliqning haqiqiy holati, ularning bizning ongimizdan mustaqil holda qanday mavjud ekanligi ifodalanadi.

Shu ma'noda obyektiv haqiqat inson yoki bashariyatga bog'liq emas. Biroq bu fikrni haqiqat subyektdan tashqarida mustaqil mavjud ekan, deb tushunmaslik kerak. O'z-o'zidan borliqda haqiqat bo'lmaydi. Faqat biz bilgan siymolar, borliq to'g'risidagi bilimlarimiz haqiqat sifatida tasniflanadi. Shu sababli haqiqat subyektiv jihatga ham ega. Masalan, stolning o'zi haqiqiy ham, soxta ham emas — u faqat mavjud. Faqat bizning uni idrok etishimiz haqiqiy yoki soxta bo'lishi mumkin. Kundalik hayotda “haqiqiy siyosat”, “haqiqiy inson” kabi iboralar qo'llaniladi. Bunday holatlarda haqiqat baholovchi ma'noda ishlatiladi [5].

Haqiqat mezoni doimo oshkora yoki butun omma tomonidan e'tirof etilgan bo'lishi shart emas. Agar qandaydir ma'lumot ko'pchilikka ma'lum bo'lsa, bu haqiqat ular tomonida degani emas. Haqiqat ovoz berish orqali o'rnatilmaydi. Tarix guvohlik berishicha, haqiqat avvaliga bir kishining, keyinchalik esa ko'pchilikning yoki bir guruh maslakdoshlarning mulki bo'lgan. Qachonlardir nisbiylik nazariyasi faqat A. Eynshteynning haqiqati bo'lgan. Agar haqiqat chindan ham haqiqat bo'lsa, u ertami-kechmi insonlar ongiga yo'l topadi. Odatda haqiqatning taqdiri shunday: avval uni inkor etadilar, keyin ishtiyoq bilan qabul qiladilar, nihoyat u odatiy, o'rganilgan va eskirgan bilimga aylanadi. Demak, ko'pchilik e'tirof etgan barcha narsa ham haqiqat bo'lavermaydi, biroq haqiqat ertami-kechmi ko'pchilik mulkiga aylanadi. Bilimlarning foydali natijasi ham doimo haqiqiylik mezoni bo'la olmaydi. Bu nuqtayi nazar pragmatizm sifatida ma'lum. Pragmatizm asoschilaridan biri, faylasuf Uilyam Jeyms, “Xudo bor” degan mulohazaning haqiqiyliги Xudoning mavjudligiga emas, balki inson hayoti uchun ushbu ishonchning muhim va samarali ekanligiga bog'liq, deb hisoblagan. Pragmatizm ko'pincha shaxsiy manfaat nuqtayi nazaridan namoyon bo'ladi. Biroq foydalilikni haqiqiylik bilan tenglashtirish shubhalidir. Ba'zan yolg'on ham foydali bo'lishi mumkin. Masalan, og'ir bemorga yaqinlari uning tez orada tuzalib ketishini aytib, uni ruhlantirishlari mumkin. Shunday qilib, foydali bo'lgan barcha narsa ham haqiqiy bo'lavermaydi.

Haqiqat mezoni roliga kogerentlik, ya'ni bilimlarning o'zaro mutanosibliги ham to'liq mos kelmaydi. Agar mavjud bilimlar qatoriga yangi bilim qo'shilsa, bu uning albatta haqiqiy ekanligini bildirmaydi. Bu yerda ongimizning muayyan moyilligi namoyon bo'ladi: biz o'zimizda mavjud bo'lgan qarashlar tizimiga zid bo'lmagan va unga mos keladigan yangi bilimlarni haqiqiy yoki ishonchli bilim sifatida qabul qilishga moyilmiz. Biroq bu har doim ham to'g'ri emas [8]. Haqiqat mezoni sifatida kogerentlikda ham, albatta, ratsional asos mavjud. Olam yaxlit bir butundir; alohida unsurlar haqidagi bilimlar olam to'g'risidagi umumiy bilimlar bilan mos va mutanosib bo'lishi zarur. Ertami-kechmi haqiqat o'zining tizimli tasnifini, oshkoraligini va boshqa haqiqatlarga nisbatan ichki moslashuvini topadi. Umuman olganda, haqiqatning mezonlari ko'p. Bunda mantiq qonunlari muhim yordam beradi: ularga qat'iy rioya qilish zarur. Ilgari fan tomonidan kashf etilgan qonunlar, ayniqsa fundamental qonunlar, mezon vazifasini bajaradi. Masalan, agar kimdir yangi qonun kashf etilganini da'vo qilsa-yu, bunda energiyaning saqlanish qonuni buzilsa, uning haq ekanligini isbotlash qiyin bo'ladi [6].

Nozik did va go'zallikni his etish ham ayrim holatlarda haqiqatga yaqinlashtiradi. Masalan, ikki raqobatlashuvchi nazariyadan birini tanlashda olimlar ko'pincha mukammalroq va nafisroq nazariyani tanlaydilar. Keyinchalik aynan shu nazariya tobora haqiqiyroq ko'rinishga boshlaydi. Shu bilan birga, amaliyot uzoq vaqt atomni parchalash imkonini bermagan bo'lsa-da, keyinchalik ilmiy taraqqiyot natijasida atomning parchalanishi isbotlandi. Xullas, haqiqat tushunchasi dunyoqarash tizimidagi eng muhim masalalardan biridir. U “adolat”, “halollik”, “hayot ma'nosi” kabi tushunchalar bilan uzviy bog'liq. Insonning hayotiy pozitsiyasi ham haqiqatning qanday talqin qilinishi va unga qanday erishish mumkinligiga bog'liq. Falsafada “haqiqat” tushunchasi narsa va hodisalarning o'zini emas, balki shu narsa va hodisalar haqidagi bilimlarni tavsiflash uchun ishlatiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 208 b.
2. Karimov I. A. O'zbekiston XXI bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O'zbekiston, 1997. – 113 b.
3. Falsafa qomusiy lug'at / Q. Nazarov va boshq. – Toshkent: O'zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2004. – 383 b.
4. Husanov B. E. Globallashuv jarayonida axloq va estetika fanlarining o'rni // O'zbekiston Milliy universiteti xabarlari. – Toshkent, 2009. – № 4. – B. 6–12.
5. Алексеев П. В., Панин А. В. Философия: учебник. – М.: Проспект, 2015. – 592 с.
6. Вернадский В. И. Начало и вечность жизни. – М., 1989. – С. 136.
7. Карнап Р. Философские основания физики. Введение в философию науки. – 4-е изд. – М.: ЛКИ, 2008. – 388 с.
8. Соловьев В. С. Философские начала цельного знания // Сочинения. – Т. 2. – М., 1988. – 230 с.